

#### 4. QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlarining miqdori va sifati bo'yicha qabul qilib olish quyidagicha amalga oshiriladi:

a) «Yetkazib beruvchi» tomonidan «Iste'molchi» vakilining neft mahsulotini olib chiqishni qabul qilish hujjatlarini o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirish orqali;

b) «Iste'molchi» tranzit orqali neft mahsulotlarini qabul qilishda amaldagi miqdor va sifat yo'riqnomalariga (P-6, P-7) asosan ish yuritadi.

#### 5. MAHSULOT SIFATI

5.1. «Iste'molchi» neft mahsulotlarini olayotgan vaqtda mahsulotning sifati va miqdorini tekshirib oladi.

5.2. Yetkazib beriladigan mahsulot sifati Davlat standarti va TSHga mos bo'lishi hamda bu jo'natilayotgan neft mahsuloti uchun berilayotgan sifat guvohnomasida aks ettirilishi lozim.

5.3. «Iste'molchi» neft mahsulotlarini qabul qilishda ularning sifatini, shuningdek, sifat guvohnomasi (pasporti)ni talab qilish huquqiga ega.

#### 6. TOMONLARNING MAJBURIYATI VA JAVOBGARLIGI

6.1. «Yetkazib beruvchi» asossiz ravishda neft mahsulotlarini yetkazib berish muddatlarini kechiktirilganligi va o'z muddatida yetkazib bermaganligi uchun «Iste'molchi»ga majburiyatlarning bajarilmagan qismi uchun 0,4 foiz miqdorda penya to'laydi, lekin to'lanadigan penya umumiy miqdori yetkazib berilmagan neft mahsulotlari qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penya to'lash, shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni, neft mahsulotlarini kechiktirib yoki yetkazib berilmagan va hakoza ...oqibatidagi zararni to'lashdan ozod etmaydi.

6.2. Amaldagi qonunchilik yoki ho'jalik shartnomasi, standartlar, texnik sharoitlar, sifat talabi, turlari va assortimentlari bo'yicha talabga to'g'ri kelmagan neft mahsulotlari yetkazib berilganda «Iste'molchi» neft mahsulotlarini qabul qilishdan bosh tortishi, «Yetkazib beruvchi»dan talab darajasida bo'lmagan neft mahsulotlari qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishi, agar mahsulot qiymati to'langan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan mablag'ni qaytarib olish huquqiga ega. Talab darajasida bo'lmagan neft mahsulotlari yetkazib berilganligi uchun jarima «Yetkazib beruvchi» dan akseptsiz tartibida undiriladi.

6.3. Shartnomada belgilangan muddatda olinmagan va neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Iste'molchi» «Yetkazib beruvchi»ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. Ushbu shartnomada biron-bir shartning bajarilmaganligi uchun javobgarlik belgilanmagan bo'lsa, u holda mazkur bajarilmagan shartlar uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga va «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunga binoan tartibga solinadi.

6.5. Tomonlar xamda ularning vakillari mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga amal qiladi.

#### 7. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Agar shartnoma tuzilgandan so'ng ikkala tomon o'z majburiyatlarini g'ayritabiiy holatlar, suv toshqini, yong'in, yer qimirlash va boshqa tabiiy ofatlar sababli bajarmasa, «O'zbekneftgaz» Ajning va NQIZ larning, «O'zbekiston temir yo'llari» DATYKning aybi bilan yoki mahsulot yetkazib berish hajmi va muddati yuqori tashkilotlar tomonidan o'zgartirilishi munosabati bilan buzilsa, hech qaysi tomon to'la yoki qisman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgar hisoblanmaydilar.